

PSIXOLOGIK TALQIN

(Zulfiya Qurolboy qizining “Qadimiy qo’shiq” hikoyasi tahlili misolida)

Burxanova Feruza Abdurazzoqovna

*Nizomiy nomidagi TDPU O’zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
filologiya salari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Tel: (90) 130-94-24 mobil

Email: burhonovaf8@gmail.com

Saidaxmedova Madinabonu Saidazim qizi

Nizomiy nomidagi TDPU O’zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi talabasi

Tel: (91) 505-32-35 mobil

Email: bonuchasaidaxmedova@gmail.com

XIX asrning oxirida g‘arb va rus adabiyoti, san’atida inson qalbining botiniy olami, ruhiyat qirralarini butun ziddiyati va dramatik jihatlari bilan tasvir etishga e’tibor kuchaydi. Natijada, adabiyot ilmida ham psixologik tahlil metodan samarali foydalanila boshlandi. E.Enneken, V.Vundt, I.Folkelt, E.Elster, E.Bertran, E.Grosse, A.A.Potebnya, D.N.Ovsyaniko-Kulikovskiy kabi jahon olimlari ruhiy tahlilning adabiyotshunoslikdagi o‘rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishdi.

So‘nggi davrlarda o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligidagi ham bu tahlil usuliga e’tibor kuchaymoqda. Tahlil va talqin muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlarda ruhiy tahlil metodiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Buni modernizmga oid bahs-munozaralarda ham, alohida ilmiy izlanishlarda ham kuzatishimiz mumkin. Jumladan, U.Normatov, B.Karimov, T.Jo‘raev, U.Jo‘raqulov va boshqa olimlarning bu boradagi izlanishlari xarakterlidir. B.Karimovning “Adabiyotshunoslik metodologiyasi” nomli tahlil metodlariga bag‘ishlangan o‘quv qo‘llanmasida ham psixologik tahlilning asosiy xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.

Psixologik tahlilda ijodkorning individual botiniy olami, ma’naviy dunyosi, irratsional ong osti holatlari badiiy obraz va ramzlar qatida bo‘y ko‘rsatadi. Zero, san’at, badiiy adabiyot uchun insonning tafakkur evrilishlari, ruhiy dunyosi, individual o‘zligi, his-tuyg‘ulari, bir so‘z bilan aytganda “Mohiyat” sari intilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko‘ra hayot haqiqatini faqat ratsional tarzda emas, balki irratsional anglash ham muhim ekani o‘z isbotini topdi. Irratsional, ya’ni anglanmagan kechinmalarni yuzaga chiqaradi. Ruhiy tahlilda asar qahramoni xarakteri, ong osti qatlamlariga xos kechinmalar talqiniga qaratilgani bois uning ruhiyati teranroq ochiladi. Bu jarayon Z.Freyd va K.G.Yunglarning qarashlarida ham o‘z isbotini topdi. Jumladan, “Z.Freyd inson psixikasida dastavval nisbatan avtonom, lekin doimiy o‘zaro faoliyatda bo‘luvchi ikkita struktura—ongsiz “U” (“Ono”, “Id”) va ongli “Men” (“Ya”, “Ego”) ni ajratdi, keyinchalik ularga “Yuqori men” (Super Ego) ni qo‘shdi yuqori

“Men”ga joylashib oladi va maxsus tahlilsiz “Men” uni anglamaydi.”¹ Shunga ko‘ra “Yuqori men” ham inson psixikasining ajralmas qismidir. Olamdagи barcha narsa va hodisalar o‘zaro harakatda, o‘zgarish va bog‘liqlikda bo‘lgani singari inson ichki olamidagi “Men”lari, aytish joiz bo‘lsa, minglab “Men”lar bir-biri bilan o‘zaro aloqada va bu aloqadorlik “Yuqori men” ya’ni, “Super Ego”ni tashkil etadi. “Yuqori men hamma ijtimoiy munosabatlар to‘plamidan iborat”.² Darhaqiqat, inson ruhiy olami shunchalik murakkabki, undagi xaos holatlar, minglab “men”larning betizgin evrilishlari mohiyatini bilish mushkuldir.

O‘zbek modern hikoyanavislari ijodini kuzatar ekanmiz, ulardagi olam va odam tasviriga bo‘lgan yangicha yondoshuvlarning guvohi bo‘lamiz. Jumladan, Zulfiya Qurolboy qizining “Qadimiy qo‘sish” hikoyasida ham inson ko‘ngil kechinmalari, ruhiy to‘lg‘onishlari, qalb tug‘yoni yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Asarda azaliy va abadiy mavzu muhabbat va uning fojeaviy qismati qalamga olingan. Inson qalbining gultoji sanalmish muhabbat qahramonlar ruhiyati va qismatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Yozuvchi o‘z sevgilisidan ayrılgan qahramon yurak dardlarini, ruhiy azoblarini ifodalashda turli poetik vositalardan, jumladan, tabiat tasviridan unumli foydalangan. “Momaqaldiroq hamon guldirar, tinimsiz chaqmoq chaqar, olam olov ichida qolgandek edi”.³ Odatta, momaqaldiroq o‘zining vahimali ovozi, chaqmoq kuydiruvchi uchqunlari bilan insonda qo‘rquv tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu hol ruhiyatda ko‘chsa-chi? Qalb fojeaviy nolasi, yurak olov bo‘lib yonayotgan oshiq ko‘ziga olam qorong‘u, ochun do‘zah kabi ko‘rinishi tabiiy. Asar qahramoni Sultonmurod ruhiyatidagi tushkunlik, orzu-xayollarning armonli yakuni, ruhiy zo‘riqish parokandalikni keltirib chiqarishi Z.Freyd ta’biri bilan aytganda, “U”, “Men” va “Yuqori men” o‘rtasidagi o‘zaro ziddiyat, psixik zo‘riqishga, ya’ni nevrozga sabab bo‘ladi. Bu holat Sultonmurod ruhiyatida o‘z aksini topadi:

“Sultonmurod asta ortiga qaytdi. Besh-olti odim yurgach, qarshisidagi muyulish chetida ulkan tosh qorayib turadi. Yigit shu tosh ustiga cho‘kdi. Horg‘inlik bilan nam toshni silarkan: “Qara-ya, bir bechora o‘tib ketdi-yu, lekin sen bilan men hamon bormiz yashayapmiz... deb qo‘ydi sekin.

Shu yerda o‘tirib u nimalarnidir o‘ylab olmoqchi bo‘ldi. O‘ylab olishi uchun bundan ortiq qulay va xoli yer yo‘qday edi. Ammo ... yigit uch-to‘rt qadam narida shu tomonga qarab kelayotgan Holiq amaki bilan tegirmonchi cholni ko‘rib asabi bo‘zildi. Shu yerdayam tinchlik yo‘g‘-a. Allamahalda ko‘chada nima bor ekan bu chollarga?!”⁴

¹ Психоанализ асослари-ўқув-услубий кўлланма. 12 бетлар

² Бу ҳақда қаранг: Психоанализ асослари-ўқув-услубий кўлланма. 5-18 бетлар

³ Зулфия Қуролбой қизи. Ўлим ҳеч нарса эмас. Т.: Янги аср авлоди 2011. Б-48.

⁴ Ўша манба б-54-55

Aslida, Sultonmurod ko‘ziga ko‘ringan qora tosh bu olamda mavjud emas, allamahalda uch-to‘rt qadam narida kezib yurgan chollar esa bu dunyodan ko‘z yumgan kishilardir. Qahramon botinidagi qayg‘u, isyonkor “Men”lar “Yuqori men” nazoratini yorib o‘tgan. Sultonmurodda ruhiy muvozanatning buzilishi natijasida shizofrenik xastalik, ya’ni yo‘q narsani bordek ko‘rish, ruhlar bilan muloqotda bo‘lish, vasvasaga uchrash holati sodir bo‘lmoqda. Hikoyani o‘qir ekan, kitobxonda “Qora tosh” badiiy detaliga qanday ma’no-mazmun yuklagan? Nega tosh qora? Kabi savollar paydo bo‘ladi. Asarni tahlil qilish jarayonida bu savollarga javob topgandek bo‘lamiz. Odatda, qahramon ichki “Men”i yolg‘izlikka intilish, dardu-dunyosi qorong‘u bo‘lgan kezlarda muyulishdagi qora toshning ustiga cho‘kar va adoqsiz xayol osmonida kezardi. Toshning qoraligi—qahramon ruhiyatidagi tushkunlik, armon. Toshning muyulishda turishi esa ikki olam—foniy va boqiy dunyo o‘rtasidagi oraliq. Bejizga toshning narigi tarafida qahramon ko‘ziga ruhlar ko‘rinmagan.

Yozuvchi asarda tasvirlagan momaqaldiroq va chaqmoq chaqishiga ham o‘ziga xos poetik ma’no yuklagan. Dastavval, asarning boshlang‘ich qismida momaqaldiroq qahramon ruhiyatidagi g‘alayonni ochib berishga xizmat qilgan bo‘lsa, voqealar rivojida Shoxsanamning ruhiyatidagi qo‘rquv, vahima tuyg‘usini aks ettiradi. U mana shu vahima tufayli Eshon huzuriga najot so‘rab boradi va bir umrga, hayotdan ko‘z yumgunicha bu dargohdan keta olmaydi. Shoxsanam ruhiyatidagi bunday g‘ayritabiyy holat, ichki tug‘yon asarda mahorat bilan ifodalangan. “Bilmayman, hatto tushuna olmayman o‘zimga o‘zim... Menga nima bo‘lgan? Xuddi hushim o‘zimda emasday... Mana hozir ham. Ba’zida nimadandir juda bezovta bo‘laman. Xayolimga nimalar kelmaydi? Mana hozir yana... Menden nafratlansangiz ham arziydi. Men shunga loyiqliman... O, yo‘q, yo‘q”.⁵

Insondagi qalb yarasi, ruhiy qiynoq, tushkunlikni dori-darmon bilan davolash mushkulligi obraz tilidan quyidagicha bayon etilgan: -“Dori-darmonga deb... O‘lsin, qancha dorini ichib yubordim. Baribir foydasi bo‘lmaydi”.⁶ Demak, inson ruhiyati shunday billurdirkni, agar u darz ketsa qayta tiklash ilojsiz, mushkuldir.

Asar poyonida momaqaldiroq ovozi Sultonmurodni o‘zini osishga undaydi. Ruhni vujuddan ozod qilishga da’vat etadi. “Tasavvur qil, vujud-ulkan chig‘anoq, ruh shu chig‘anoq ichida dimiqib yotgan jonivor. Mana endi u ozod!” Demak, momaqaldiroq—o‘lim vahdati, Eshon ruhini isyonkor qasosi ramzi hamdir. Zotan ikki qalbnig pokiza muhabbat zavoliga sabab bo‘lgan ham shu momaqaldiroqdir.

Hikoya kitobxonni inson qalbining botiniy olamiga sayr qildiradi, gunoh va savob, iymon va e’tiqod kabi ilohiy tushunchalar haqida o‘ylashga, muayyan xulosalar chiqarishga undaydi. Bu bejiz emas, albatta. Zero, inson qalbi tilsimli bir dunyodir.

⁵ Ўша манба 6-57

⁶ Ўша манба 6-58

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. BURKHANOVA, F. (2021). The Use Of Myths And Legends In Creation Of Story In Modern Uzbek Prose. *Int. J. of Aquatic Science*, 12(2), 2795-2800.
2. The methods of studying and analyzing classical poetic arts in literature lessons //Journal of critical reviews, 2020. – №5. – Б. 1631-1641
3. Burkhanova, F The Wisdom In The Works Of Alisher Navoi// Turkish Journal of Physiotherapy and Rehabilitation; 32(3) ISSN 2651-4451 | e-ISSN 2651-446X (Dec 03, 2021) P. 32467-32472
4. Burkhanova, F. (2018). The use of metaphor in the stories of Nazar Eshankul. *Theoretical & Applied Science*, (10), 312-315.
5. Burkhanova F. A New Artistic Interpretation Of The Image Of Sisyphus. Journal of Positive School Psychology . 2022, Vol. 6, No. 9, 2746-2752
6. Burkhanova F. ABOUT THE ANALYSIS OF THREE STORIES. GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 10, Issue 10, Oct. (2022) 174-178
7. Псилоанализ асослари-ўқув-услубий қўлланма. 12 бетлар
8. Зулфия Қуролбай қизи. Ўлим ҳеч нарса эмас. Т.: Янги аср авлоди 2011. Б-48

Internet saytlari:

9. [http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/\)](http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/)
10. <http://dx.doi.org/10.31838/jcr.07.05.279>
11. <http://www.turkjphysiotherrehabil.org/>
12. http://www.journal-aquaticsience.com/article_134329.html
13. <http://journalppw.com>
14. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2574>
15. <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/2574>